

Diyora AVEZMURATOVA,
 Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakultetlararo chet tillari o'qituvchisi
 E-mail:diyoraava@gmail.com

O'zDJTU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAZIL NUTQIY JANRI TADQIQIGA OID LINGVISTIK MASALALAR

Аннотация

Maqolada ingliz va o'zbek tillarida hazil nutqiy janrining qiyosiy tadqiqida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan lingvistik masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Nutqiy janr, tilshunoslik, etimologiya, pragmatik, lug'at, til.

К ИЗУЧЕНИЮ ЮМОРИСТИЧЕСКОГО РЕЧЕВОГО ЖАНРА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ

Аннотация

В статье анализируются лингвистические вопросы, которые следует учитывать при сравнительном изучении юмористических речевых жанров в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Речевой жанр, лингвистика, этимология, прагматика, словарь, язык.

TO THE STUDY OF HUMOROUS SPEECH GENRE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES LINGUISTIC ISSUES

Аннотация

The article analyzes the linguistic issues that should be considered in the comparative study of humorous speech genres in English and Uzbek languages.

Key words: Speech genre, linguistics, etymology, pragmatics, dictionary, language.

Kirish. Shu kunga qadar hazil nutqiy janri yuzasidan yevropa va rus tilshunoslari tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[1]. Rus tilshunoslari tomonidan hazil nutqiy janrining turli tiplaridagi etimologik, pragmatik, lingvomadaniy xususiyatlari kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Mavzuga oida adabiyotlar tahlili. Rus tilshunosi O.Jilsova M.Fasmer o'zining rus tilining etimologik lug'atida hazil so'zining kelib chiqishi haqida shunday deydi: hazil so'zi cherkovda slavyancha "jaster" so'zidan kelib chiqib, uydagi yoki cherkovdagi odamni, janobu-xonimlarni yoki mehmonlarni kulgu bilan ko'ngil ochishlarini, ko'nglini ko'tarishlarini anglatadi[2]. V.V. Propp esa komik vositalarni o'rganish alohida lingvistik tadqiqotlab masalalardan ekanligini yozadi[3]. D.S.Lixachev, A.M.Panchenkolar esa qadimgi rus madaniyati misolida kulgu-hazilga inson madaniyatining tarixi sifatida yondoshib, hazil dunyosini talqin qilishga harakat qiladilar[4].

Yu.V.Shurina esa hazil nutqiy janr sifatida pragmatik jihatdan tadqiq etar ekan[5], uning til tizimidagi konstitutiv belgilari va funksiyalashuvi mexanizmini ko'rib chiqadi. Bunda u hazilning kommunikativ maqsad, so'zlovchi va tinglovchi, reallashirish va reallashuv shartlari, reallashuv natijasi, propositiv mazmuni, shakliy qurilishi, ya'ni perlokutiv effekt kabilarni aniqlaydi. Ushbu tadqiqotda olim hazil nutqiy janrining til tizimida reallashuv jarayonida kommunikativ maqsadning nostandart funksiyalashuvini qayd etadi. Bunga ko'ra qo'llanilgan hazil komik effektini berganda, kishi yuzida jilmayish, kulish kabi o'zgarishlar ro'y beradi. Olimaning fikricha, til tizimida hazil nutqiy janri kommunikativ maqsad omilida garchi komik effektini ko'zlasada, ba'zan estetik effektini ham o'z ichiga olishi mumkin. Estetik effekt esa ikki xil, ya'ni tinglovchi tomonidan hazilga bo'lgan munosabatni zo'r hazil bo'ldi kabi ijobiy, ko'nglingga olma, qo'pol hazil edi kabi salbiy effektlarda qabul qilinishi mumkin.

Hazil nutqiy janri komik effektini nazarda tutganda vaziyat va qatnashuvchilar nuqtai nazaridan turli hil kommunikativ maqsadlarni ko'zlashi mumkin: 1) pozitiv maqsad, ya'ni tinglovchilarni tetiklashtirish, xursand qilish, ko'ngil ochish, kayfiyatni ko'tarish, tasalli berish; 2) negativ maqsad, ya'ni kishi kayfiyatiga salbiy ta'sir qilish, xafa qilish, haqorat qilish, xo'rlash, mas'haralash kabi; 3) bundan tashqari bir qator g'oyalari, fikrlarni ijobiy yoki salbiy baholashlar haqida xabar berish niyatining mavjudligi. Shu sababli ham ijobiy yoki salbiy baholashni nazarda tutuvchi hazil nutqiy janri baholovchi nutqiy janr sifatida ham namoyon bo'ladi. Nostandart funksiyalashuvni o'z ichiga olgan hazil nutqiy janri turli xil kommunikativ maqsadlar qorishmasi natijasida hosil bo'lar ekan, hazil nutqiy janriga tinglovchining salbiy munosabati kelib chiqishi turgan gap. Shu sababli ham tinglovchining salbiy ma'nodagi "nega mas'hara qilyapsan, mas'hara qilma, hazillashyapsanmi, rahmat tasalli berganing uchun kabi kinoyali, maqsadning o'zi meni tinchlantirishmi kabi qo'pol munosabatlarni o'zi ichiga olgan jummalarning qo'llanilishi kuzatiladi. Hazil nutqiy janrining tinglovchilarni tetiklashtirish, xursand qilish, ko'ngil ochish, kayfiyatni yaxshilash va ko'tarish, tasalli berish, ijobiy baholash, vaziyatni yumshatish kabi ijobiy, miyasiga salbiy ta'sir qilish, xafa qilish, haqorat qilish, xo'rlash, mas'haralash, salbiy baholash, tinglovchiga bo'lgan ishonchsizlik, qo'rqish, hadik, rashk qilish, hasad qilish kabi salbiy maqsadlarning mavjudligi hazil nutqiy janrining yaxshi xulqli va haqoratli bo'lmagan hazil yohud oddiy mas'hara kabi kommunikativ maqsadlarni ro'yobga chiqarishi hazil nutqiy janrini ko'p maqsadli nutqiy janr sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi. Olimaning pragmatik tahlili shuni ko'rsatadiki, hazil nutqiy janri nostandart funksiyalashuvni nazarda tutuvchi, baholovchi va ko'p maqsadli nutqiy janrdir.

Rus tilshunosi A.V.Karasik esa yumorni lingvomadaniy xususiyatlarni tadqiq qilar ekan, yumorga oid muloqotning konstitutiv belgilari, ayniqsa, ingliz yumorini lingvokulturologik xususiyatlari va verballashuv usullarini, tushunmovchilik lingvomadaniy fenomen ekanligini, ingliz yumorlarini tushunmaslik kategoriyasiga ko'ra tiplarini, anekdot matnlarida aktuallashuvchi yumor nutqiy faoliyatining pragmatikasini aniqlaydi[5].

Hazil nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari qiyosiy tadqiqida hazil nutqiy janrining muayyan ijtimoiy jamiyatga mansubligi, ushbu jamiyatga tegishli ayni zamon, makon va vaqt birligi, belgilangan ijtimoiy ko'rsatkichlar asosida suhbatlashayotgan so'zlovchi va tinglovchi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy nutqiy faoliyat va uning mahsuli sifatidagi ijtimoiy lingvistik maqomi belgilash, hazil nutqiy janrining lingvistik mohiyatida so'zlovchining tinglovchilarda kulgu uyg'otish, tetiklashtirish, xursand qilish, ko'ngil ochish, tasalli berish, kayfiyatni ko'tarish, o'zaro ijtimoiy munosabatlar (do'stlik, yaqin tutish kabi) o'rnatish, ijtimoiy suhbat muvozanatini saqlash, suhbat mavzusini o'zgartirish, xaqiqatga ishora qilish, vaziyatga oydinlashtirish, vaziyatni ijobiy yoki salbiy baholash, o'zining (ijobiy yoki salbiy) munosabatini ko'rsatish, mulozamat, xushomad

qilish, kinoya, istehzo, ta'na, mas'hara, mazah, kishi kayfiyatiga salbiy ta'sir qilish, xafa qilish, haqorat qilish, xo'rlash, tanqid qilish, tahdid qilish, kishilarning kayfiyatini rostdash, ularga zavq baxsh etish, muayyan mavzu doirasida ularning bilimlarini yanada kengaytirish, aqlini, fikrini charxlash, ziyrak, hozirjavob bo'lishga da'vat etish kabi turli kommunikativ maqsadlar mavjudligini aniqlash, hazil matnida hazil ob'ektining tinglovchilarga yo'naltirilganlik tamoyili, ijtimoiy nomuvofiqlik tamoyili, ijtimoiy me'yorlarning qat'iyligi, ijtimoiy chegara va ijtimoiy ta'qiq mavjudligi munosabati bilan ijtimoiy mavzularga xos ochiqlik va yopiqlik tamoyili, ijtimoiy yosh, jins, ijtimoiy yaqinlik kabi ijtimoiy ko'rsatkichlarga ko'ra hazil matnining tanlanishi, umumiy milliy va milliy ijtimoiy obraz va ramzlarni tushunish, tinglovchi tomonidan hazilni tushunish va qabul qilish, yuzaki qabul qilish, hazilni noto'g'ri tushunish va rad etish kabi ijtimoiy lingvistik reaksiyalar, hazillarda yengillik va o'tkirlik kabi sotsiolingvistik uzvlarning mavjudligini aniqlash, hazil nutqiy janridagi ingliz muloqot odobi va xulqida ijtimoiy talab va me'yorlarda erkinlik, ayniqsa, intim mavzularning ijtimoiy-madaniy jihatdan ochiqligi kabi, o'zbek muloqot odobi va xulqida ijtimoiy me'yordan oshmaslik, hazil-mutoyibada ozor bermaslik kabi ijtimoiy talab va me'yorlarning qat'iy belgilanishi, shu bilan birga, intim mavzularning yopiqligi kabi ijtimoiy milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash kabi masalalar muhimdir.

Hazil nutqiy janri jamiyatning ijtimoiy lingvistik ongiga singib ketgan hodisa bo'lib, unda barqaror jamiyat va uning milliy-madaniy g'oyalari aks etadi. Jamiyatdagi g'oyalar o'sha tilda so'zlashuvchilarning milliy-madaniy qarashlarida o'z aksini topganligi sababli ham hazil nutqiy janri so'zlovchi va tinglovchi jamiyatining o'ziga xosliklari va o'sha jamiyatga tegishli madaniyatning mavjudligidan xabar beruvchi nutqiy janrlardan sanaladi.

Hazil nutqiy janrida hazil obyektini "yo'naltirilganlik" tamoyilida ham milliy madaniy tavofutlar mavjud. Ba'zi bir halqlar hazilda tinglovchiga tegishli hech qanday unsur ko'rmaydi, lekin shunday halqlar borki, hazilning osti zil deb baholashadi, bunda hazil tinglovchiga yo'naltirilgan deb hisoblaniladi. Shuning uchun ham hazilning haqorat, kamsitish, mas'haralash, mazahlash ma'nolari yuzaga keladi. Demak, bunda hazil ob'ekti tinglovchilarga yo'naltirilganligi bilan harakterlanadi. O'zbek halqida hazilning tinglovchilarga yo'naltirilgan deb hisoblanishi o'zbek halqining milliy madaniy tushunish darajasini ko'rsatadi. Hazil nutqiy janrida hazilni tushunish va qabul qilish, yuzaki qabul qilish, hazilni noto'g'ri tushunish va rad etish kabi ijtimoiy lingvistik reaksiyalar hazil qaysi tilda, qaysi millatda aytilayotganiga bog'liq. Demak, hazil nutqiy janrini tushunish muayyan madaniyatga xos bo'lgan ijtimoiy milliy-madaniy unsurlarni tushunish demakdir.

Hazil nutqiy janri ijtimoiy lingvistik hodisa sifatida millat karakterini o'zida saqlovchi ijtimoiy obraz va ramzlarni ifoda etadiki, ushbu ijtimoiy obraz va ramzlarni tushunish kishidan ijtimoiy milliy-madaniy bilimlarni talab qiladi. Bunda umumiy obraz va ramzlar hamda milliy obraz va ramzlarni farqlash lozim.

Xulosa va takliflar. Ingliz va o'zbek tillarida hazil nutqiy janrining qiyosiy tadqiqida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan lingvistik masalalar talaygina. Bu esa, kelgusida hazil nutqiy janri yuzasidan nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik, xususan, sotsiolingvistik, lingvomadaniy, pragmalingvistik tadqiqotlar olib borish zaruriyatini tug'diradi.

ADABIYOTLAR

1. Жильцова О.Ю. Шутка как малый речевой жанр. ГБОУ ВПО Саратовский ГМУ им. В.И. Разумовского Минздрава России, кафедра русской и классической филологии; 1 Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. М., 1976; Д.С.Лихачев, А.М.Панченко. "Смеховой мир" Древней Руси. Л., 1976; Ю. В. Шурина Шутка как речевой жанр. Дисс. Канд. Наук по фил.1997; А.В. Карасик. Лингвокультурные характеристики английского юмора. дисс. кандидат филологических наук.Волгоград, 2001, 193 с;
2. Жильцова О.Ю. Шутка как малый речевой жанр. ГБОУ ВПО Саратовский ГМУ им. В.И. Разумовского Минздрава России, кафедра русской и классической филологии
3. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. М., 1976
4. Лихачев Д.С., Панченко А.М. "Смеховой мир" Древней Руси. Л., 1976.
5. Шурина Ю. В. Шутка как речевой жанр. Дисс. Канд. Наук по фил.1997
6. Карасик А.В. Лингвокультурные характеристики английского юмора. дисс. кандидат филологических наук.Волгоград, 2001, 193 с.